

TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XUSUSIYATLARI**Mamatqulov Dostonbek Saidjon o'g'li***Bank-moliya akademiyasi magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tijorat banklarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha nazariy asoslari ko'rib chiqilgan. Moliyaviy faoliyatga soliqni ijobiy va salbiy jihatlari tadqiq qilingan. Olib borilgan tadqiqotlarni o'rganishlar asosida tegishli xulosalar shakllantirilgan. Iqtisodiy rivojlanish tijorat banklarining iqtisodiy faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, tijorat banklarining iqtisodiy faoliyatida doimo banklar tomonidan to'lanadigan soliqlar alohida ahamiyatga ega. Tijorat banklarida foyda solig'ini hisoblash va undirish mexanizmlarini takomillashtirishning potensial yo'llariga e'tibor qaratiladi. Turli ilmiy ishlarni baholash va qiyosiy tahlillarni o'tkazish orqali ushbu tadqiqot O'zbekistondagi tijorat banklari uchun maxsus ishlab chiqilgan samarali soliqqa tortish usullarini tavsiya etishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, tartibga solish, soliqqa tortish, moliyaviy faoliyatga soliqlar, foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, tijorat banklari soliqlari, soliqni hisoblash, soliq yig'ish.*

KIRISH

Tijorat banki – tijorat asosida bank faoliyati, ya'ni mablag'larni jalb qilish va kreditlarni taqdim etish, bank hisobvaraqlarini ochish va uni yuritish hamda to'lovlarni o'tkazish kabi amaliyotlarni amalga oshiruvchi kredit tashkilotidir. Tijorat banklari – bo'sh pulga (jamg'armaga) ega va pulga muhtoj bo'lganlar o'rtasidagi vositachilardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda. Chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to'planishining va bank rivojlanishining asosiy manbasidir.

Bank foydasining o'sib borishiga ta'sir qiladigan bir necha xil omillar mavjud bo'lib, bular: bankning rentabelligi, vaqtincha bo'sh mablag'larning samarali ishlatilishi, turli xil pullik xizmatlar ko'rsatish doirasini (faktoring, lizing xizmatlari va h.k.) kengaytirish, foyda keltirmaydigan aktivlarni kamaytirish, foyda keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish va boshqa omillar hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biriyuqori darajada foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Banklarning faoliyati doimo foyda ko'rish bilan bog'liq bo'lmasdan, ular faoliyatida zarar ko'rish ehtimoli ham uchrab turishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo'lgan hollarda, ularning foyda olish va salbiy faoliyat natijasida, banklarning zarar ko'rish ehtimoli yuqori darajada bo'ladi. Yuqorida

aytilgan foyda keltiruvchi rezervlarni amalda tatbiq qilish jarayonida, bankning ish faoliyati iqtisodiy jihatdan risk (zarar ko'rish ehtimoli) bilan bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar bilan xarakterlanadi: keng ko'lamdagi soliq chegirmalaridan keng foydalanish (kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga rezervlar, foyda bazasini ko'rilgan zararlar summasiga kamaytirish va boshqalar), foizli daromad olish bilan bog'liq foizli xarajatlar bo'yicha cheklovsiz chegirmalarni taqdim etilishi, bank faoliyati bilan bog'liq asosiy operatsiyalarni QQS to'lashdan ozod qilinishi. Global moliyaviy inqirozni kelib chiqish sabablari va uning oqibatlarini bartaraf etishda bank sektorini tartibga solish va soliqqa tortish o'rtasidagi mavjud bo'lgan muammolarni ko'rsatib berdi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish tijorat banklarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni undirishning ko'plab xususiyatlarini ochib beradi. Ko'plab olimlar o'z ishlarida ushbu muhim masalani turli nuqtai nazardan o'rganishga harakat qilganlar.

Ilmiy adabiyotlarda banklarni soliqqa tortishda turli soliq rejimlari tavsiya etilgan bo'lib, ularni umumlashtirgan xolda ikki turga tasniflash mumkin: daromadga yo'naltirilgan soliqqa tortish va korrektirovka qiluvchi soliq. Daromadga yo'naltirilgan soliqqa tortishni keng tarqalgan kuyidagi turlaridan biri moliyaviy faoliyatga soliq (MFS). Shaviro (2012) tasdiqlashicha, barcha normadan ortiqcha foyda va ish haqiga qo'llaniladigan soliqni mumkin bo'lgan variantlardan biri va barcha daromad va harajatlarga soliq solishni muqobil usuli sifatida QQS ni o'rnini bosishi mumkin.

Slemrod va Gillitzer (2014) o'zlarining "Soliq tizimlari" kitobida soliq tizimlari bo'yicha ajoyib istiqbolni taklif qilishadi. Ular daromadlarni shakllantirishga bo'lgan ehtiyojni moliyaviy beqarorlik xavfi bilan muvozanatlashtiradigan soliq tizimlarini loyihalash muhimligini belgilaydi. Ularning ta'kidlashicha, tijorat banklari uchun foyda solig'i qoidalari bank inqirozlarini kuchaytirmaydigan tarzda tuzilishi kerak. Ushbu qoidalar banklarni soliq majburiyatlaridan qochish uchun haddan tashqari tavakkal qilishdan ko'ra moliyaviy mas'uliyat bilan harakat qilishga undash uchun ishlab chiqilishi kerak¹.

Hemmelgarn va Teichmann o'zlarining "Soliq islohotlari va banklarning kapital tarkibi" kitobida boshqacha yondashadilar. Ular bank foyda solig'i strategiyalarining ularning umumiy faoliyati va mijozlarga xizmat ko'rsatishga ta'sirini o'rganadilar. Ularning fikricha, soliqqa tortish tizimi faqat soliq tushumlarini maksimal darajada oshirishga qaratilishi kerak emas. Aksincha, u banklarni ijtimoiy

¹ Slemrod, J., & Gillitzer, C. (2014). Tax Systems. MIT Press.

majburiyatlari va mijozlarga ta'sirini hisobga olgan holda o'z faoliyatini mas'uliyat bilan olib borishga undashi kerak².

Bularga qo'shimcha ravishda, Johnstone & Quiggin (2014) "Iqtisodiyotni moliyalashtirishning soliq siyosatiga ta'siri" maqolasida e'tiborga loyiqdir. Ular moliya bozorlari, moliyaviy motivlar va moliya institutlarining roli ortib borishi bilan tavsiflangan iqtisodiyotni moliyalashtirish soliq manzarasini qanday murakkablashtirganini muhokama qiladilar. Ularning ishi moliyaviylashgan iqtisodiyotning murakkab tomonlarini samarali boshqarishi mumkin bo'lgan mustahkam soliq tizimlariga ega bo'lish muhimligini ta'kidlaydi³.

Sh.A. Toshmatov fikriga ko'ra "...soliqlar orqali korxonalar iqtisodiy faolligini samarali boshqarishi mumkin, degan xulosadan tashqari soliqlarni korxonaning iqtisodiy faolligiga to'sqinlik qiluvchi, unga salbiy ta'sir etuvchi birinchi omil sifatida baholash zarur"⁴.

L.G.Batrakova xulosasiga ko'ra "Umuman olganda, bank ixtiyorida qolgan foyda uchta «global» tarkibiy qismga bog'liq: daromad, xarajatlar va byudjetga to'lanadigan soliqlar"⁵.

B.O. Otajonov, G.B. Bababekova, I.S. Musaxonzoda larning qayd etishicha "Tijorat banklarining moliyaviy natijalarini tahlil qilishda foydaning asosiy manbai bo'lgan ushbu daromad (foizli va foizsiz daromadlar) turlarining tarkibi va o'zgarishini chuqur o'rganish lozim"⁶.

Keynes ta'kidlashicha, soliqlar fiskal funksiyasidan tashqari iqtisodiyotni tartibga solish, rag'batlantirish va daromadlarni boshqarish vositasi funksiyalariga ega, soliqning bu funksiyalari uni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanish zaruriyatidan kelib chiqadi. Yevropa komissiyasining (moliyaviy sektorni soliqqa tortish to'g'risidagi ma'ruzasida soliq solishda muhim bo'lgan uchta argument keltirib o'tilgan⁷. Soliqqa tortish moliyaviy sektorni faoliyati bilan bog'liq risklarni pasaytirish maqsadlari uchun qo'llaniladigan tartibga solishga muhim vosita deb qaralgan. Ikkinchidan, daromad manbai bo'lib, banklar soliq to'lovchi sifatida davlat moliyasiga adolatli xissa qo'shishi mumkin va uchinchidan, banklar moliyaviy muammolarini yechimida moliyalashtirish manbasi hisoblanadi⁸.

² Hemmelgarn, T., & Teichmann, D. (2014). Tax reforms and the capital structure of banks. *International Tax and Public Finance*, 21, 645-693.

³ Johnstone, B., & Quiggin, J. (2014). The implications of the financialization of the economy for tax policy. *Australian Economic Review*.

⁴ Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli. T: "Fan va texnologiya"-2008, 46-bet.

⁵ Батракова Л.Г. Экономический анализ деятельности коммерческого банка М: Логос 2005, стр 320,

⁶ B.O. Otajonov, G.B. Bababekova, I.S. Musaxonzoda. «Banklarda iqtisodiy tahlil» - T.: «IQTISODIYOT», 2020. - 118 bet.

⁷ Keynes J.M. 1936. *The General Theory of Employment, Interest Rates and Money*. Harcourt Brace & World, New York.

⁸ EC 2010. *Financial sector taxation*. Taxation Papers, 25, Brussels: Directorate General Taxation and Customs Union, European Commission.

Taxminlarga ko'ra, moliyaviy soliqlardan tushumlar umumiy daromadlar tarkibiga kirib, umumiy zarar miqdoriga teng bo'lmasligi lozim bo'lsada, biroq bu soliqlar moliyaviy sektorni haddan ziyod riskli faoliyatini cheklashga yoki oldini olishini ta'minlashi lozim. Shuningdek, tizimli risklarni bevosita korrektirovka qiluvchi soliqlar tartibga solish qoidalariga kiritilgan yangi o'zgarishlar bilan uzviy muvofiqlashtirish (masalan, kapital yetariligi va likvidlikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha talablar) zarur hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tijorat banklarining iqtisodiy faoliyatiga soliqlar ta'sirining xususiyatlari keltirib o'tilgan. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston tijorat banklari yangi tahrirda tasdiqlangan Soliq kodeksida yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan bo'lib, jumladan, tijorat banklari yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilganligi hamda ularning alohida bo'linmalari hisobga olinib, Soliq kodeksining 20-moddasiga asosan banklar (Bosh bank) markazlashgan holda soliq hisobotini taqdim etishi va belgilangan tartibda soliqlarni (yig'imlarni) to'lashi qayd etilgan.

Bizga ma'lumki dunyoning yetakchi iqtisodiyotiga ega AQSh, Kanada, Germaniya, Shveysariya mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan tijorat banklariga soliq solish tizimini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda barcha soliq to'lovchilar uchun, ularning faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan qat'iy nazar, soliqqa tortish umumiy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi, ular qonunlar, qoidalar, ko'rsatmalar, ko'rsatmalar shaklida alohida davlat organlarining qarorlari bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, bir qator soliqlar bo'yicha moliya institutlarining soliq solinadigan bazasini aniqlash muhim aniqlashtirishni talab qiladi. Birinchi navbatda, daromad solig'iga tegishli bo'lgan alohida holatlar aniqlashtirish kerak. Avvalambor tijorat banklarini soliqqa tortish davlatning ichki qonunlari asosida hosil bo'ladi. Davlatning tijorat banklariga soliq solish tizimini tahlil qilishdan oldin umumiy soliq tizmi haqida tasavvurga ega bo'lish lozim⁹.

Samarali va aniq soliqqa tortish siyosati bilan mashhur bo'lgan Singapurda Singapur ichki daromadlar boshqarmasi hamkorlikda muvofiqlik yondashuvini qo'lladi. Bunday yondashuv banklarni soliq tavakkalchiligi bo'yicha shaffof bo'lishga, o'zaro ishonchni mustahkamlashga va soliq organlari va tijorat banklari o'rtasidagi kelishmovchiliklarni kamaytirishga chaqiradi. Ushbu faol chora soliq

⁹ Yermoshina T.V., Uvarova I.A. Стимулирование инвестиционной деятельности коммерческих банков через систему налогообложения // Kontentus. 2013 г. -№4. -19-24 б.

to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining kamayishiga va Singapur bank sektorida umumiy soliq majburiyatlarining oshishiga olib keldi Germaniya esa soliq yig'ish jarayonlarini raqamlashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. Mamlakat o'z tijorat banklari uchun soliq hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish majburiyatini yuklaydi, bu nafaqat soliq yig'ish samaradorligini oshiradi, balki inson xatolarini ham minimallashtiradi. Texnologiyani qo'llash orqali Germaniya soliqlarni hisoblash va undirish jarayonlarini soddalashtirib, umumiy soliq qonunchiligini yaxshilashga muvaffaq bo'ldi. Kanada soliqlarni hisoblash va undirishning samarali usullarini ham namoyish etadi. U o'z bank sektori uchun tushunarli va aniq soliq yo'riqnomalarini taklif qiladi, chalkashliklarni kamaytiradi va qonunbuzarlik holatlarini kamaytiradi. Kanada soliq organi, shuningdek, banklarning soliq majburiyatlarini bajarishini ta'minlash uchun muntazam audit o'tkazish zarurligini ta'kidlaydi¹⁰.

Ma'lumki tijorat bankining iqtisodiy faoliyati bu kredit tashkilotining turli darajadagi boshqaruvi bilan bog'liq bo'lsada, pirovardida mijozlarning bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga qaratiladi. Dastlab banklarning faoliyatiga soliqlarning ta'siri, ushbu soliq turlarining turli xususiyatli ekanligida namoyon bo'ladi. Shu maqsadda banklarning iqtisodiy faoliyati bilan bog'liq qarorlarini qabul qilishdan oldin mazkur qarorlar bo'yicha soliq oqibatlarini ta'sirini tahlil qilishga ham e'tibor qaratish lozim.

Tijorat banklarining ham boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kabi asosiy maqsadi foyda olish bo'lib, bunga asosan xarajatlarni kamaytirish, daromadlarning manbalarini muntazam izlab topish orqali erishiladi. Tijorat banklarining soliqlarni o'z vaqtida to'lashi, ularga doir penyalarni kelib chiqishini oldini olib bu - moliyaviy intizomga rioya etilishidan xulosa beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, istiqbolli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun banklar ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kabi soliq oqibatlari bo'yicha yechim va unga yondashuvlarni tahlil etishi zarur. Chunki tijorat banklari tomonidan to'lanadigan foyda solig'i ham ularning iqtisodiy faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Soliq solinadigan daromad toifalari: Tijorat banklarini daromadidan soliqqa tortiladiganlari quyidagilar, tovarlar, ishlar, xizmatlar, foizlar, dividendlar, yalpi royalti, yalpi ijara haqi va kapital o'sishidan tushgan daromatlarga soliq solinadi. Davlat nuqtai nazaridan ushbu manbalar bankning soliqqa tortiladigan daromadlar sirasiga kiradi. Agar Tijorat banki mahalliy kompaniya bo'lsa unda kompaniyalarning ishidan olingan dividendlar qisman soliqqa tortiladi Tijorat bankini soliq to'lashdan ozod qilingan daromadlari quydagi holatda bo'lsa : masalan, qonun talablariga javob beradigan davlat va munitsipal obligatsiyalar bo'yicha olingan foizlarni va korporatsiyaning 80% dan ko'prog'iga egalik qiladigan bo'lsa, korporatsiya tomonidan sho'ba korxonadan olingan dividendlarni ko'rsatadi.

¹⁰ Toshmatov Sh. Tijorat banklarini soliqqa tortish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. –Toshkent, 2014. -No 12. –6 b.

sho'ba korxonalar va konsolidatsiyalangan guruhning bir qismi sifatida hisoblanib daromadning shu turiga olinishi kerak bo'lgan soliqdan ozod qilinadi¹¹.

Tijorat banklarini ya'ni quyidagi holatda daromad soliqlari kamaytiriladi ya'ni tijorat banklari banklar boshqa ixtisoslashgan moliya institutlari va sug'urta kompaniyalari bilan birgalikda kechiktiriladigan qarzlarni uchun zaxira yaratish imkoniyatiga ega ekanligi ta'kidlangan.

Ushbu zaxiralar, asosan, qaytarilmasligi mumkin bo'lgan kreditlar bo'yicha potentsial yo'qotishlarni qoplash uchun ajratiladi. Banklar kechiktiriladigan qarzlarni uchun ajratilgan summalarini xarajatlar sifatida kiritishlari mumkin, bu esa o'z navbatida ularning soliqqa tortiladigan daromadlarini (soliq bazasini) kamaytiradi.

Tijorat banklari foydasi va xodimlar mukofotlarini soliqqa tortish doirasida ekspertlar asosiy e'tiborlarini muhim va murakkab bo'lgan masalaga, ya'ni soliqqa tortish maqsadida moliyaviy sektordagi qo'shilgan qiymatni aniqlashning amaliy imkoniyatlariga qaratilgan. MFS ning ko'p jihatdan QQS xarakteriga ega bo'lishi, QQS kabi banklarning faoliyati strukturasi bevosita ta'sir etmaydi, chunki soliq xizmatlardan tushum yoki tovar aylanmasidan emas, balki qo'shilgan qiymat summasiga bog'liqligini tasdiqlaydi. Albatta, mazkur soliqni QQS bilan farqi shundaki, soliq yuki faqat oxirgi iste'molchilarga emas, ma'lum qismi banklarga ham tushadi.

Tijorat banklarining iqtisodiy faoliyatiga foyda solig'ining ta'sirini quyidagi holatlar namoyon bo'lishi orqali kuzatish mumkin:

- bank xizmatlarining narxining oshishi;
- bank xizmatlari taklifining hajmining kamayishi;
- bankning iqtisodiy ko'rsatkichlarining no-barqarorligini yuzaga kelishi;
- investitsion va kreditlash imkoniyatlarining kamayishi;
- xodimlarining faoliyatini rag'batlantirishning susayishi;
- sof foydaning kamayishi;
- xarajatlarni kamaytirish maqsadida foydani oshirishning turli imkoniyatlarini izlash;
- bank mahsulotlarining realizatsiya qilish hajmini oshirish maqsadida ularning miqdor va sifatiga e'tibor qaratish;
- banklarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini barqarorligini ta'minlanishi;
- boshqaruv samaradorligini yaxshilanishi;
- foydani oshirish maqsadida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- sof foyda miqdorining o'sishi¹².

¹¹ Abdullayev. A. Soliq imtiyozlarining banklar resurs bazasini oshirishdagi ahamiyati // Bozor, pul va kredit. –Toshkent, 2022. -No 9. –48 b.

¹² B.O. Otajonov, G.B. Bababekova, I.S. Musaxonzoda. «Banklarda iqtisodiy tahlil» - T.: «IQTISODIYOT», 2020. - 118 bet.

Demak banklarning iqtisodiy faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida soliqlarning ta'sirini tizimli ravishda tahlil qilish zarur.

Tijorat banklar to'laydigan soliqlarning bevosita ta'siri foyda solig'i to'langunga qadar moliyaviy natijani shakllantirish bilan bog'liq, chunki banklar to'laydigan soliqlar operatsion xarajatlar tarkibiga tegishli hisoblanadi. Dastlab ular foyda solig'i to'langunga qadar moliyaviy natijani shakllantirishga ta'sir (foyda solig'idan tashqari) etsa, hisobot davridagi sof foyda (zarar)ni shakllantirishga foyda solig'i bevosita ta'sir etadi. Mazkur holatda foyda solig'ining pirovard moliyaviy natijani shakllantirishda muhim ahamiyati ko'rinadi.

Ammo soliqlarni tijorat banklarning daromadlarini shakllantirishga ta'siri nuqtai nazaridan quyidagicha guruhlash mumkin:

- Doimiy ta'sir etuvchi soliqlar;
- O'zgaruvchan ta'sir etuvchi soliqlar.

Doimiy va o'zgaruvchan ta'sir etuvchi soliqlarning iqtisodiy mohiyati quyidagicha ifodalanishi mumkin.: tijorat banklarida moliyaviy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi o'zgaruvchan soliqlarning miqdoriga oshishiga olib keladi, ammo moliyaviy ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lmagan doimiy ta'sir etuvchi soliqlar miqdori mohiyatan o'zgarmaydi.

Binobarin, mazkur soliqni amalga oshirilishi banklarni faoliyatiga bevosita ta'sir etmaydi, chunki MFS aslida iqtisodiy rentaga soliq sifatida, bank faoliyatini o'zgartirmagan xolda uni hajmini qisqartirishga olib keladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston uchun tijorat banklarini soliqqa tortish va undirishni takomillashtirish bo'yicha ko'p qirrali yondashuvni joriy etish zarur. Birinchidan, qoidalarning aniqligi juda muhimdir. Aniq, izchil soliq qonunlari noaniqliklarni kamaytiradi va ularga rioya qilishni oshiradi.

Ikkinchidan, soliq yig'ishni raqamlashtirishga ustuvor ahamiyat berish kerak. Germaniyaning elektron soliq hisobotiga o'xshash tizimni joriy etish jarayoni yanada samaraliroq qilish va xatolarni kamaytirish imkonini beradi.

Tijorat banklarida foyda solig'ini hisoblash va undirish mamlakat moliya tizimining murakkab, ammo hal qiluvchi jihati hisoblanadi. O'zbekiston ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish orqali bank sohasida soliq amaliyotini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Aniq reglamentlar, raqamlashtirish va kooperativ muvofiqlik yondashuvining kombinatsiyasi bu borada muhim qadam bo'lishi mumkin.

Bank sektoridagi foyda va ish haqiga qo'llaniladigan MFS ko'p jihatdan QQS xarakteriga ega bo'lib, biroq soliq yukini mijozlarga o'tkazish ehtimoligi juda kam hisoblanadi. Soliq bazasi sifatida belgilangan yuqori daromadlilik darajasi chegarasidan yuqori bo'lgani foyda va yuqori mukofot oluvchi boshqaruv xodimlarini daromadi qamarab olgan MFS-3 modeli moliyaviy sektordagi ortiqcha daromadni soliqqa aylanishini ta'minlaydi. MFS samaradorligini oshirishga,

solisqlarni to'lanishi bilan bog'liq risklarni pasaytirishda, ikki yoqlama soliq solishni oldini olish uchun tegishli tadbirlarni ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish talab etiladi.

Bank sektori uchun xos bo'lgan tizimli risk darajasini pasaytirishga karatilgan makroprudensial siyosatni samarali amalga oshirishda tartibga solish va soliqqa tortishni muvofiqlashtirish lozim.

Fikrimizcha quyidagi takliflarni keltirish maqsadga muvofiq:

- banklarning iqtisodiy faoliyatiga solisqlarning, asosan foyda solig'ining xususiyatlaridan kelib chiqib uning ta'sirini mezonlar asosida alohida o'rganish;
- moliyaviy natijalarni aniq ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun murakkab bo'lgan foyda solig'ini aniq hisoblanishini amalga oshirish;
- banklar to'laydigan jami solisqlar yig'indisiga nisbatan foyda solig'ining ulushi yuqori ekanligini hisobga olib, foyda solig'i bo'yicha o'zgarishlar banklarning iqtisodiy faoliyatiga sezilarli ta'sir etishini inobatga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-814-sonli "Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
3. S.Qudratov.,M.Nazarova. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv.Toshkent. TDIU. 2019 y
4. A.A. Azlarova, M.M. Abduraxmanova "Bank marketingi va menejmenti" Toshkent – Iqtisodiyot – 2019 199
5. Yuldasheva G. Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni rivojlantirish istiqbollari // Moliya va bank ishi. № 4, 2020. – 34-41 b.
6. Toshmatov Sh. Tijorat banklarini soliqqa tortish xususiyatlari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2014. - № 12. – 6 b.
7. Keynes J.M. 1936. The General Theory of Employment, Interest Rates and Money. Harcourt Brace & World, New York.
8. EC 2010. Financial sector taxation. Taxation Papers, 25, Brussels: Directorate General Taxation and Customs Union, European Commission.
9. Slemrod, J., & Gillitzer, C. (2014). Tax Systems. MIT Press.
10. Hemmelgarn, T., & Teichmann, D. (2014). Tax reforms and the capital structure of banks. International Tax and Public Finance, 21, 645-693.

11. Johnstone, B., & Quiggin, J. (2014). The implications of the financialization of the economy for tax policy. *Australian Economic Review*.
12. Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli. T: "Fan va texnologiya"-2008, 46-bet.
13. Yermoshina T.V., Uvarova I.A. Стимулирование инвестиционной деятельности коммерческих банков через систему налогообложения // *Kontentus*. 2013 у. -No4. -19-24 b.
14. Abdullayev A. Soliq imtiyozlarining banklar resurs bazasini oshirishdagi ahamiyati // *Bozor, pul va kredit*. –Toshkent, 2022. -No 9. –48 b.
15. Батракова Л.Г Экономический анализ деятельности коммерческого банка М: Логос 2005, стр 320,
16. B.O. Otajonov, G.B. Bababekova, I.S. Musaxonzoda. «Banklarda iqtisodiy tahlil» - T.: «IQTISODIYOT», 2020. - 118 bet.
17. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2019 yil 14 avgustdagi 2019-52, 94 va 352-V-son " Tijorat banklari tomonidan davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan moliyaviy hisobot shakllarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga 2-ilova asosida
18. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
19. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
20. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti
21. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti